

«KUNTUG‘MISH» DOSTONIDA MORFOLOGIK VOSITALARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Narziyeva Nazokat Abdurasulovna

SamDChTI akademik litseyi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada «Kuntug‘mish» dostoni matnida qo‘llangan o‘xshatishning morfologik vositalari va ularning uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Doston tilida –day (-dek), -simon, -ona, -namo, -cha, -dan, -li kabi qo‘shimchalarning funksional hamda emotsional-ekspressiv imkoniyatlari misollar asosida yoritilgan. Shuningdek, –i, -yi, -iy, -dey, -di(r) shakllarining ham o‘xshatish vositasi sifatida talqin qilinishi asoslab berilgan. Tadqiqotda o‘xshatish vositalarining grammatik va stilistik ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: o‘xshatish, morfologik vosita, badiiy tasviriy vosita, uslubiy xususiyat, ekspressivlik, emotsionallik, qo‘shimcha, xalq og‘zaki ijodi, doston tili, stilistik funksiya.

Badiiy asar tilining obrazlilikini ta'minlashda, badiiy ta'sir darajasini oshirishda va estetik ahamiyat kasb etishida badiiy tasviriy vositalarning o'rni nihoyatda beqiyos. Shuning uchun tasviriy vositalarsiz badiiy adabiyotni aslo tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, o‘xshatish yozma adabiyotdagi kabi xalq og‘zaki adabiyotida ham keng tarqalgan badiiy tasviriy vositalardan biri. «O‘xshatish eng qadimgi tasviriy vositalardan bo‘lish bilan birga, eng sodda va ko‘p ishlatiladigan, tez-tez qo‘llaniladigan sintaktik hodisa hisoblanadi»[5,41]. U «ikki narsa yoki hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, konkretroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatib beradi»[6,294]. Shu sababdan o‘xshatishlarning mazmun-mohiyatini, qo‘llanilish o‘rinlarini va vazifalarini xalq dostonlari tilidan qidirish maqsadga muvofiq. Chunki obrazlarni to‘la va aniq, bo‘rttirib tasvirlash dostonlar tilida uchraydigan muhim belgi-xususiyatki, bunday tasvirlash usuli bevosita o‘xshatish bilan o‘zaro aloqador. Masalan, «Kuntug‘mish» dostonida quyidagi mubolag‘ali bo‘rttirishlarni hosil qilishda

aynan o'xshatish vositasidan foydalanilgan: qor-yomg'irday qamchi yog'ib boshiga [2,328]; ayiqday hayqirib, ajdarhoday ishqirib [2,262]; bir o'g'londir misli daryoday toshgan [2,202] va b.

Ma'lumki, o'xshatishning morfologik vositalari –day (-dek), -simon, -ona, -namo, -larcha, -omuz, -cha, -chasiga, -dan, -li qo'shimchalari yordamida yuzaga keladi. Ammo «Kuntug'mish» dostonida o'xshatish vositasidan keng foydalanilgan bo'lsa-da, ularda mazkur vositalarning barchasi ham qo'llanilmagan. Xususan, -simon, -larcha, -omuz, -chasiga, -namo vositalari yordamida yuzaga kelgan o'xshatishlar umuman uchramaydi. Shuningdek, -ona shakli yordamida hosil qilingan o'xshatish butun matn mobaynida doston so'ngida bir martagina qo'llanilgan: Qirq kecha-qirq kunduz podshohona to'y qilib berib... [2,342]. –li, -cha, -dan yordamida hosil qilingan o'xshatishlar esa ko'p bo'lmasa-da, bir necha bor qo'llanilgan: bo'ying barobarli zar beraman [2,217]; bilaging temirdan, po'lat tirnog'ing [2,189]; tog'cha bo'lib go'daklarning g'ayrati [2,314].

O'xshatishni yuzaga keltiruvchi –day vositasi doston matnida 250 ga yaqin qo'llangan bo'lib, –day (ilonday zahri kelib), –dey (uy dey berma, ko'nglim yarim, Xolbeka), –dayin (sherdayin hayqirgan) shakllarida kelgan. Ammo bu vositaning –dek shaklidagi varianti umuman uchramaydi.

Ta'kidlash joizki, o'xshatish «obraz yaratishga ko'maklashishi bilan badiiylikni yuzaga keltiruvchi, ijodkor maqsadini, niyatini to'laroq ifoda etuvchi vosita sifatida, emotsionallikni ro'yobga chiqaruvchi badiiy usul sifatida ishtirok etadi»[1,10]. Buni o'xshatishning –day shakli orqali ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Masalan, Toza gulday so'lar bo'ldim, men emdi [2,229] va Xazon qilib qizil gulday taningni [2,194] jumllaridagi birinchi gulday so'zida –day qo'shimchasi ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi stilistik vosita emas, balki grammatik element sifatida ishtirok etgan. Buni –day qo'shimchasining birikmada mustahkam o'rin olganidan ham ko'rish mumkin. Ikkinchi misoldagi gulday so'zida esa –day qo'shimchasini ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi stilistik vosita deb qarash mumkin. Chunki ushbu so'zdagi o'xshatish ma'nosi avvalo metafora usulida hosil qilingan. Shu sababdan ham –day qo'shimchasini tushirib

qoldirib qizil gul taningni deyilsa ham jumla ma'nosiga putur yetmaydi va o'xshatish ma'nosi yo'qolmaydi. Shuning uchun ham unda emotsionallik mavjud.

«Kuntug'mish» dostonida o'xshatish vositasi ba'zan o'zining asosiy o'xshatishlik xususiyatini yo'qotib, takroriy so'zlar kabi ma'no kuchaytirish vazifasini ham o'tagan. Bunday vazifa doston matnida ikki xil usulda amalga oshirilgan: 1) metaforaga uchragan so'zga o'xshatish vositalarini qo'shish orqali: Oyday jamoli munavvar bo'lib [2,177]; 2) bir so'zga bir necha o'xshatish vositasini qo'shish orqali: Bir o'g'londir misli daryoday toshgan [2,202]. Lekin doston matnidagi o'xshatishning yuqoridagi kabi emotsional-ekspressivlik kasb etishi faqat shu yo'sinlardagina amalga oshmaydi, balki ko'p hollarda «salbiy yoki ijobiy munosabatning ifodalanishi o'xshatish obrazi bo'lgan predmet yoki hodisaning ijtimoiy ongda qanday baholanishiga bog'liq holda kechadi. Mazkur obrazning ongda ijobiy baholanishi o'xshatish obyektidagi xususiyatlarni bo'rttirishga xizmat qilsa, uning ijtimoiy ongda salbiy baholanishi esa o'xshatish obyektidagi salbiy xususiyatlarni bo'rttirishga olib keladi»[4,39]. Xususan, «Kuntug'mish» dostonida Azbarxo'janing yomon ishlariga yarasha jazolanganida «...ho'kizday bukirib-bukirib, itday bo'lib o'lib qoldi» [2,341] jumlasini ishlatilganki, bunda salbiy xususiyat bo'rtib turibdi. Yoki Gurkiboy tilidan aytilgan «Ikkovimiz birday yetim, Bog'da ochilgan gulday yetim, Jannatdagi hurday yetim, Ikki yetim do'st bo'layik» [2,283] misralarida esa ijobiy buyoqdorlik mavjud.

Hozirda o'xshatishning morfologik vositasi sifatida asosan –day, -dek qo'shimchalarigina [3,69] nazarda nazarda tutilib, qolganlari nazardan chetda qolmoqda. Lekin tilshunosligimizda o'xshatishni badiiy tasviriy vosita sifatida ilk tadqiq etgan olimlardan biri hisoblangan R.Qo'ng'urovning «O'zbek tilining tasviriy vositalari» monografiyasida o'xshatishning bir qancha morfologik (grammatik) shakllari keltirilganki, ularni inkor etish mumkin emas. Og'zaki matn o'zining ko'p jihatlari bilan yozma matndan farq qiladi. Xuddi shunday badiiy tasviriy vositalarning qo'llanilishida ham bunday tafovutlar ko'p kuzatiladi. Shu nuqtayi nazardan «Kuntug'mish» dostonida tilshunos R.Qo'ng'urovning e'tiboridan chetda qolgan, ammo olim ilgari surgan nazariyaga (o'xshatishning -dan, -simon, -ona, -namo, -larcha, -omuz, -

li kabi morfologik vositalariga nisbatan) bo'ysunadigan o'xshatishning –i, –yi, –iy, –dey, –di(r) kabi morfologik vositalari haqida ham fikr bildirish mumkin.

Bu vositalardan –dey shakli –day qo'shimchasining eskirgan varianti bo'lib, doston matnida bir martagina qo'llangan: uy dey berma, ko'nglim yarim, Xolbeka [2,297]. Keyingi –i, –yi qo'shimchalari tojikchadan o'zlashgan izofa hisoblanadi. Biroq ular qo'shma so'z yoki barqaror birikmalar tarkibida kelmaganda –dek qo'shimchasiga yaqin turadi: Kasofati o'zbek qayoqdan keldi [2,188]. Xolbeka oyimning ko'ziga bir uyquyi g'alabani keltirdi [2,210]. Ikkinchi misoldagi –yi vositasini –li yoki –dek qo'shimchalari bilan almashtirish mumkin. Xuddi shunday hozirda sifat yasovchi qo'shimcha hisoblangan –iy vositasini ham: Gohi tush shaytoniy, gohi rahmoniy [2,251]. Agar taxmin va ta'kid ma'nolarini bildirmaganda –di(r) qo'shimchasi ham o'xshatishning morfologik vositasi deb qaralishi mumkin: ko'zlaring qambardir, bodom qobog'ing [2,180]; ko'zlari qoradir, qoshi qalamdi(r) [2,184].

Umuman olganda, badiiy tasviriy vositalarning boshqa turlari qatori o'xshatish vositasi ham ko'plab tadqiqotchilar tomonidan tekshirilgan. Lekin xalq og'zaki ijodi namunalari matnida, xususan, «Kuntug'mish» dostoni matnida yaxlit ko'rinishdagi alohida tadqiqot yaratilmagan. Vaholanki, o'xshatishning dostonlar matnidagi o'rni va vazifasini birgina maqolada batafsil yoritib bo'lmaydi. Chunki har bir qo'shimchaning qo'llanilish chastotasi, tub va ikkilamchi vazifalari (grammatik va stilistik), etimologiyasi, yozma badiiy asarlarda kelgan o'rinlaridagi farqi kabi o'ziga xos xususiyatlari borki, ularni yoritish tilimizning o'tmishini va hozirgi kundagi imkoniyatlarini aniq belgilab olishga omil bo'lib xizmat qilishga yordam beradi. Binobarin, har bir tilning haqiqiy ko'rinishi uning xalq og'zaki ijodi bilan yaratilgan asarlari va oddiy jonli so'zlashuv tilidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Каримов С.** Бадий услуб ва тилининг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ наشري, 1994.
2. **Кунтуғмиш.** Айтувчи: Эргаш Жуманбулбул ўғли / Булбул тароналари. Беш томлик, I том. –Тошкент: «Фан», 1971.

3. **Mengliyev B., Xoliyorov O'.** O'zbek tilidan universal qo'llanma. –Toshkent: «Fan», 2008.
4. **Шамсиддинов X.** Термин-ўхшатиш // «Ўзбек тили ва адабиёти», 1983 йил, 3-сон.
5. **Қўнғуров Р.** Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. –Тошкент: «Фан», 1977.
6. **Хотамов Н., Саримсоқов Б.** Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Тошкент: «Фан», 1979.